

TIL TA'LIMIDA PIKTOGRAMMALAR ORQALI O'QUVCHILARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Ochilova Zilola,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

ochilovazilola02@gmail.com

Parxiddinova Diyora,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

diyoraparxiddinova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada til ta'limida piktogrammalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Piktogrammalarning o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni, ularning vizual idrok, mantiqiy fikrlash, ijodiy tafakkur hamda nutq faoliyatiga ta'siri ilmiy manbalar va xorijiy tajribalar asosida yoritiladi. Shuningdek, til darslarida qo'llaniladigan piktogramma turlari, ularning samaradorligi hamda ta'lim jarayonida foydalanish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: piktogramma, til ta'limi, tafakkur, vizual ta'lim, mantiqiy fikrlash, kreativ fikrlash, savodxonlik, pedagogika.

Annotation. This article analyzes the theoretical and practical foundations of the use of pictograms in language education. The role of pictograms in the development of students' thinking, their impact on visual perception, logical thinking, creative thinking and speech activity are highlighted based on scientific sources and foreign experience. It also discusses the types of pictograms used in language lessons, their effectiveness and methods of use in the educational process.

Keywords: pictograms, language learning, thinking, visual learning, logical thinking, creative thinking, literacy, pedagogy.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические основы использования пиктограмм в языковом образовании. На основе научных источников и зарубежного опыта освещается роль пиктограмм в развитии мышления учащихся, их влияние на визуальное восприятие, логическое мышление, творческое мышление и речевую активность. Также рассматриваются виды пиктограмм, используемых на уроках языка, их эффективность и методы применения в образовательном процессе.

Ключевые слова: пиктограммы, изучение языка, мышление, визуальное обучение, логическое мышление, творческое мышление, грамотность, педагогика.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qila olishi va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, til ta'limida o'quvchining tafakkuri va nutqiy faoliyati o'zaro chambarchas bog'liqdir. Til vositasida inson dunyoni anglaydi, hodisalarni tahlil qiladi va o'z fikrini ifodalaydi. Shu sababli til ta'limida innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda vizual pedagogika elementlari, jumladan, piktogrammalardan foydalanish o'quvchilarning bilimni qabul qilish va qayta ishlash jarayonlarini sezilarli darajada faollashtirmoqda. Piktogrammalar murakkab ma'lumotlarni sodda va tushunarli shaklda ifodalash imkoniyatiga ega bo'lib,

o'quvchilarning eslab qolish, tasavvur qilish va mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Adabiyotlar sharhi. Piktogramma – ma'lum bir tushuncha, predmet, harakat yoki hodisani grafik belgilar yordamida ifodalovchi vizual vosita. Ular insoniyat tarixidagi eng qadimiy yozuv shakllaridan biri bo'lib, qadimgi Misr, Shumer va Xitoy madaniyatlarida keng qo'llanilgan. Mashhur psixolog Lev Vygotsky ta'kidlaganidek, inson tafakkuri belgilar tizimi orqali rivojlanadi. Belgilar, ramzlar va tasvirlar bolaning bilish faoliyatini tashkil etuvchi muhim vositalardir. Piktogrammalar ham ana shunday vositalardan biri bo'lib, ular abstrakt tushunchalarni konkretlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, amerikalik pedagog va psixolog Jerome Bruner bilimlarni o'zlashtirishning uch shaklini ajratib ko'rsatadi: harakatli (enaktiv), tasviriy (ikonik) va ramziy (simvolik). Piktogrammalar aynan ikonik bosqichga mansub bo'lib, murakkab tushunchalarni tasvir orqali o'zlashtirishga yordam beradi.

Tafakkur – voqelikni umumlashtirilgan va bilvosita aks ettirish jarayonidir. Psixologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, inson miyasi vizual axborotni matnga nisbatan tezroq qabul qiladi. Tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra, inson miyasiga kelayotgan axborotning katta qismi ko'rish analizatori orqali qabul qilinadi. Kanadalik olim Allan Paivio tomonidan ishlab chiqilgan "Ikki tomonlama kodlash nazariyasi"ga ko'ra, matn va tasvir birgalikda berilganda axborotning esda saqlanish darajasi sezilarli ravishda oshadi. Chunki ma'lumot bir vaqtning o'zida ham verbal, ham vizual kodlarda qayta ishlanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari maktablarida "Visual Thinking Strategies" texnologiyasi qo'llanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarni rasmlar va belgilar asosida mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bunday metodlar o'quvchilarning tanqidiy va analitik tafakkurini rivojlantiradi. Janubiy Koreya ta'lim tizimida esa raqamli piktogrammalar va infografikalardan foydalanish orqali o'quvchilarning axborotni qayta ishlash tezligi oshirilmoqda. Elektron darsliklarda vizual belgilar matn mazmunini mustahkamlovchi vosita sifatida qo'llanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar natijasida quyidagi piktogramma turlari o'quvchilarning tafakkuriga samarali ta'sir ko'rsatishi aniqlangan:

1. Ketma-ket syujetli piktogrammalar. Bu turdagi piktogrammalar voqealar rivojini bosqichma-bosqich aks ettiradi. Ular sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga yordam beradi.

Misol: □ → 🌱 → 🌾 → 🍞

O'quvchi yomg'ir, o'simlik o'sishi, hosil va non o'rtasidagi bog'liqlikni tushunadi.

2. Mantiqiy bog'lanish piktogrammalari. Tushunchalar orasidagi aloqalarni aniqlashga yordam beradi.

Misol: 🏠 → 🎓 → 📚

Bu belgilar bilim, ta'lim va kasb o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

3. Ramziy piktogrammalar. Abstrakt tushunchalarni anglashga xizmat qiladi.

Misol: ♥ □ – mehr, ⚖ □ – adolat, □ – tinchlik

Bunday piktogrammalar abstrakt tafakkurni rivojlantiradi.

4. Muammoli piktogrammalar. O'quvchini fikrlashga va xulosa chiqarishga undaydi.

Misol: □ + 🔥 = ?

Bu shakldagi topshiriqlar tanqidiy va muammoli tafakkurni rivojlantiradi.

5. Kreativ piktogrammalar. Bir nechta belgilar asosida hikoya yaratish vazifalari ijodiy fikrlashni shakllantiradi.

Misol: 🧑 🌙 🏠 □ ☆

O'quvchi ushbu belgilar asosida mustaqil hikoya tuzadi.

Shuningdek, ona tili darslarida piktogrammalar ustida ishlash jarayonini Blum taksonomiyasi asosida tashkil qilish mumkin:

1. Bilish va tushunish. Bunda turli ko'rinishdagi piktogrammalar ko'rsatiladi, o'quvchilar ularning qanday ma'no anglatishi va ulardan qayerlarda foydalanish mumkin ekanini izohlaydi. *Masalan, qoshiq va sanchqi tasvirlangan piktogramma ko'rsatilsa, o'quvchi uning shu atrofda ovqatlanish markazi mavjud ekani, bunday piktogrammalardan ovqatlanish markazlari yaqinida foydalanish mumkin ekanini aytishi lozim.* Bu ko'rinishdagi topshiriqlar piktogrammalar haqida ma'lumot berilgan darsdan so'ng mustahkamlash sifatida taqdim qilinishi tavsiya qilinadi.

2. Qo'llash va tahlil qilish. Bunda o'quvchilar xayoliy ravishda ma'lum vaziyatlarning ishtirokchisiga aylanadi. Ushbu vaziyatda ular qanday piktogrammalardan foydalanishi kerak ekanini aniqlaydilar va ularni amaliy jihatdan qo'llab ko'radi. *Masalan, siz kir yuvish kukuni ishlab chiqarish firmasining direktorisiz. Mahsulotingiz juda sifatli, ammo ishqori kuchli bo'lgani bois uning inson tanasi uchun ma'lum xavflari mavjud. Ushbu vaziyatda siz mahsulotingiz qadog'iga joylashtirish uchun qaysi ko'rinishdagi piktogrammalardan foydalanasiz?* Keyin qo'llangan piktogrammalarning nechog'lik vaziyat uchun mos yoki mos emasligi, uning to'g'ri tanlangani, mohiyati va vazifasi tahlil qilinadi.

3. Baholash va yaratish. O'quvchilarga muayyan vaziyatlar aytiladi. Ular esa shu vaziyatga mos mavjud piktogrammalarni baholaydi, ya'ni piktogrammalar haqiqatdan ham bildirilayotgan mazmunga to'liq mos va tushunarli bo'lsa, uni yaxshi baholash mumkin. Yoki aksincha, ba'zi piktogrammalar muayyan vaziyatni unchalik aniq ifodalab bermayotgan bo'lsa, o'quvchi shu vaziyat uchun o'zi mustaqil holda piktogramma yaratishi mumkin. Yaratish paytida piktogrammalarning aniq va lo'nda mazmun kasb etishi, hammaga tushunarli bo'lishini ta'minlash talab qilinadi. *Masalan, kutubxonada shovqin chiqarmaslik mazmuni beruvchi piktogrammalarni keltiring, ularga baho bering, o'zingiz shu mazmundagi piktogrammalarni yaratishga harakat qiling.*

Natijalar. Til ta'limida piktogrammalar yangi so'zlarni o'rgatishda, matn mazmunini qayta hikoya qilishda, gap va matn tuzishda, sinonim va antonimlarni aniqlashda, maqol va hikmatli so'zlarni sharhlashda, insho yozishga tayyorlashda, tanqidiy fikrlash topshiriqlarini tashkil etishda qo'llanishi mumkin. Mazkur turdagi topshiriqlar yordamida o'quvchilarning nafaqat yaratuvchanlik ko'nikmasini rivojlantiradi, balki ularning jamiyat hayotini tartibga solishda muhim rol o'ynaydigan shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Xulosa. Pedagogik kuzatuvlarga ko'ra, vizual elementlar bilan boyitilgan darslarda o'quvchilarning faolligi va bilimlarni eslab qolish darajasi an'anaviy darslarga nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Piktogrammalar orqali axborotni kodlash o'quvchining qisqa muddatli xotirasidan uzoq muddatli xotirasiga o'tish jarayonini tezlashtiradi. Shu sababli ular til o'rgatishning samarali vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. Bundan tashqari, piktogrammalar inklyuziv ta'limda ham katta ahamiyatga ega. Nutqida yoki o'qishida qiyinchiliklari bo'lgan o'quvchilar uchun vizual belgilar axborotni tushunishni yengillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lev Vygotsky. Thought and Language. Cambridge, MIT Press, 1986.
2. Jerome Bruner. Toward a Theory of Instruction. Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1966.
3. Allan Paivio. Mental Representations: A Dual Coding Approach. New York: Oxford University Press, 1986.
4. Piktogrammalar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.